

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

2/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2023, № 2

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ		
Latipov H.M.	To'rtinchи tartibli operatorli matritsaga mos Fredgolm determinantining asosiy xossalari	3
Norqulov J.F., Kengboyev S.A., Azimov R.B.	Silindrik tishli uzatmalarda tishning qiyalik burchagi o'zgarganda ta'sir qiladigan kuchlarni aniqlash va ishlash samaradorligini takomillashtirish	9
Alimov H.N., Mirzayev B.R., Toshmatov D.Sh., Yo'ldoshev B.A.	Kasr tartibli diffuziya tenglamasidan manbani aniqlash masalasi	13
Faxxodov S.U., Yusupov X.N., Doliyev Sh.Q., Toshtemirov R.T.	Po'lat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda optimallashtirish usulini qo'llash	20
Ibdullayev M.X., Norqulov J.F., Saidov B.Y.	Neft va gaz sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarining zamonaviy samarador konstruksiyasining hisobi	28
Nuriddinov J.Z., Primov J.F.	Parabolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun teskari masalalar	36
Sayliyeva G.R.	Uch o'lchamli qo'zg'alishga ega umumlashgan Fridrixs modelining xos qiymatlari haqida	45
To'rayev Sh.D., Norqulov U.E., Nazarov M.M.	Turbogeneratorning texnik holatini baholash metodologiyasi	51
Юлдашева Н.Б.	Темир боратнинг оптик, магнитооптик ва фотомагнит хоссалари	57
Shoimov B.S., Jamolov Sh.J.	Singulyar koeffitsiyentga ega bo'lgan giperbolik tipdagi tenglama uchun Koshi masalasi	66
Jumayev J., Muhammadova M.	Ochiq oqim kengayishi kattaligidan turbulent qovushoqlik tenglamasi modelida foydalanish	71
Фаязов К.С., Худайберганов Я.К.	Условная корректность начально-краевой задачи для системы неоднородных уравнений параболического типа с двумя линиями вырождения	76
Jumayev J., Baqoyeva S.T.	Nostatsionar konveksiya masalasini oshkor usulda yechish	86
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akramov I.I.	Researching the origins of aphorisms	91
G'aybullayeva N.I.	Tilga kognitiv yondashuvning shakllanish taraqqiyoti	95
Raxmatova M.M., Inoyatova D.I.	O'zbek badiiy adabiyotida xunuklik tushunchasining ifodalanishi	100
Кутлиева М.Ф.	Инглиз ва ўзбек тилларида кўшма сўзларда ургунинг аҳамияти	105
Maxmudova S.X.	"Ostona" konsepti lingvomadaniy birliklarining badiiy matndagi o'rni	110
Rabiyeva M.G', Mustoqova S.U.	Evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillarida lingvomadaniy shartlanishi	115
Navruzova N.X.	Connotation in verbs and its expressive functions	119
Nazarova N.A.	Bases of the theoretical study of anthroponyms and their	126

**OCHIQ OQIM KENGAYISHI KATTALIGIDAN TURBULENT QOVUSHOQLIK
TENGLAMASI MODELIDA FOYDALANISH**

*Jumayev Jo'ra,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
j.jumayev@buxdu.uz
Muhammadova Marjona,
Buxoro davlat universiteti magistranti
mmmarjona1994@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada bir parametrli turbulentlik modelidagi noma'lum turbulentlik masshabini ochiq oqim kengayish tajriba natijalari asosida aniqlangan analitik tenglamalarga asoslanib modellashtirish metodikasi taklif etilgan. Oqim jarayonini matematik modellashtirish uchun barqaror holda fizik o'zgaruvchilarda yozilgan chegaraviy qatlam tenglamalaridan foydalanilgan. Ushbu tenglamalarni yechish uchun adabiyotlarda ma'lum bo'lgan sonli usullardan foydalanilgan. Oqim ko'ndalang kesimi uzunligining turbulentlik kattaligiga, shuningdek oqim parametrlariga ta'siri o'rGANILGAN. Ushbu masshabning ochiq sohadagi jarayonlarni modellashtirishda ta'siri kamligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: turbulent oqim, izotermik oqim, turbulentlik masshabi, turbulentlik qovushoqligi differensial tenglamasi, chegaraviy qatlam, oqim kengayish burchagi, sonli usul.

Аннотация: В статье предложена методика определения масштаба турбулентности при уравнении для турбулентной вязкости, основанная на аналитическом соотношении из известных источников. Для математического моделирования использовано уравнение для пограничного слоя, записанное в стационарном виде в физических координатах. Для решения этих уравнений использованы численные методы, которые известны из источников. Изучено влияние поперечного расстояния струи на турбулентность, а также параметры струи. Выявлено, что влияние этого параметра на общее картину течения невысокое.

Ключевые слова: Турбулентная струя, изотермическое течение, масштаб турбулентности, дифференциальное уравнение для турбулентной вязкости, пограничный слой, угол расширения струи, численное решение.

Abstract. The article proposes a method for determining the scale of turbulence with an equation for turbulent viscosity based on analytical relationships from known sources. For mathematical modeling, the equation for the boundary layer, written in a stationary form in physical coordinates, was used. To solve these equations, numerical methods are used, which are known from sources. The influence of the transverse distance of the jet on turbulence, as well as on the parameters of the jet, was studied. It was found that the influence of this parameter on the overall flow pattern is not high.

Keywords: Turbulent jet, isothermal flow, turbulence scale, differential equation for turbulent viscosity, boundary layer, jet expansion angle, numerical solution.

Kirish. Ochiq sohada tarqaluvchi turbulent oqimlar ximik-texnologik, oziq-ovqat sanoati, boshqa texnik sohalarda keng tarqalgan. Bunda bu sohalarda issiqlik va massa almashinuvi, soha kengayish chegaralarini aniqlash katta ahamiyatga ega, chunki ushbu jarayonlar asosan turbulent holdagi ochiq oqimlar ko'rinishida bo'ladi. Bunday turbulentlik oqimlari ko'pgina adabitlarda o'rGANILGAN [1-2]. Bunday turbulent oqimlarni o'rGANISHDAGI asosiy vazifalardan biri sohadagi turbulent qovusoqlik koeffisiyentini o'rGANISH bo'lib qolmoqda.

Hozirga paytda turbulentlik koeffisiyentini aniqlashda algebraik usullardan[2], differensial tenglamalar ko'rinishidagi modellardan foydalanish imkoniyati mavjud. Ochiq oqimlar uchun qulay va sodda ko'rinishda yozilgan bir parametrli differensial tenglamadan foydalanish kam empirik o'zgarmaslardan foydalanganligi, algoritmi soddaligi bilan izlanuvchilarda qiziqish uyg'otmoqda[3].

Ushbu modellarni o'rGANISH Ni va Kovajniy ishlaridan so'ng boshlangan[3].

[4] da turbulentlik koeffitsiyenti uchun differensial tenglama taklif etilgan bo'lib, tahlil etish uchun ancha sodda va tushunarli tarzda bayon etilgan, keng turdag'i avtomodel bo'limgan turbulent oqimlarni modellashtirish imkoniga ega va uning ko'rinishi quyidagicha:

$$u \frac{\partial \varepsilon}{\partial x} + v \frac{\partial \varepsilon}{\partial y} = \frac{\partial}{\partial y} \left((\chi \varepsilon + v) \frac{\partial \varepsilon}{\partial y} \right) + \varepsilon k_0 \left| \frac{\partial u}{\partial y} \right| - \frac{k_1 \varepsilon}{L^2} (\beta \varepsilon + v) \quad (1)$$

(1) tenglamadan ko'rindiki, unda L koeffitsiyenti mavjud bo'lib, turbulentlik masshtabini ifodalaydi. [4] da aytishicha, agar ochiq oqimlar ko'riliyotgan bo'lsa, u holda oxirgi hadni hisobga olmasa ham bo'ladi, chunki ochiq oqimlarda turbulentlik masshtabi L katta deb hisoblanadi. Shuning bilan birligida ushbu kattalik oqim boshidan boshlab o'sib borsa, uni hisoblashlarda inobatga olgan ma'qul, bu kattalik oqimning soplidan uzoq sohalaridagina katta qiymatlarga erishadi.

[5] da asosiy o'q bo'yicha simmetrik deb hisoblangan ochiq oqimlarni turbulentlik qovushoqlik koeffitsiyenti uchun yozilgan differensial tenglamani hisobga olgan holda sonli yechimlar olingan. Matematik model sifatida chegaraviy qatlama tenglamalariga asoslangan differensial tenglamalardan foydalanilgan. Yechimlar tajriba natijalari bilan solishtirganda yaxshi natijalar bergan. Ishda tovushdan katta tezliklar uchun ham yechimlar olingan. Tovush tezligidan past bo'lgan oqimlarni chegaraviy qatlama sifatida qarab avtomodel yechimlar ham olingan. Turbulentlik masshtabi uchun tezliklar gradiyentlari kombinatsiyasidan foydalanilgan.

[6] da Sekundovning vt-92 ko'rinishidagi turbulentlik modeli turli xil oqimlar uchun qollanilib natijalar olingan. Bu modelni qo'llagan holda asosiy o'qni simmetrik deb qaragan holda tovushdan past sovuq, issiq va tovush tezligiga yaqin holdagi oqimlar uchun sonli yechimlar olingan. Bunda gidrodinamika tenglamalari Mizes o'zgaruvchilarida yozilib, oshkormas absolyut, ikkinchi tartibdagi aniqlikda bo'lgan sxemalardan foydalanilgan. Ushbu modelning siqilmaydigan suyuqliklar uchun yaxshi natijalar berishi ko'rsatilgan.

Bir parametrali turbulentlik modelini qo'llab shunga o'xshagan turli masalalar[7,8] da ko'rilgan, hatto bu model yonish jarayonlarini modellashtirishda ham qo'llanilgan[9].

Uyqorida ko'rib o'tilgan tahlillardan ko'rini turibdiki, turbulentlik masshtabini aniqlash uchun turli usullardan foydalanilgan. Bunday izlanishlar davom etmoqda. Agar tenglamalar fizik koordinatalarda yozilgan holda yechilsa, asosiy o'q bo'yicha har bir to'r qadamida radial koordinata bo'yicha oqim kengayishini aniqlab borish kerak. Agar u aniq bo'lsa, bu kattalikni turbulentlik masshtabi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu maqolada ana shu kattalikni aniqlashning bir usuli taklif etilgan.

Metodika. Bizga r_0 radiusli doiraviy quvurdan chiqib ochiq oqimda tarqalayotgan turbulent izotermik oqim berilgan bo'lsin. Oqim fizik kattaliklari u tarqalayotgan soha kattaliklari bilan bir xil. Bunda ushbu jarayonni matematik modeli sifatida turbulent chegaraviy qatlama tenglamalaridan iborat differensial tenglamalaridan foydalangan holda, ularni o'lchovsiz holda quyidagicha yozish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial v}{\partial y} &= 0 \\ u \frac{\partial u}{\partial x} + v \frac{\partial u}{\partial y} &= \frac{1}{Re} \frac{\partial}{\partial y} \left(v_{ef} \frac{\partial u}{\partial y} \right) \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

Bu yerda u, v – tezlik vektorining koordinatalar bo'yab tashkil etuvchilarini (x koordinatasi asosiy o'q bo'yab, y koordinatasi radial koordinata bo'yab joylashtirilgan); $v_{ef} = v + v_t$; v, v_t – mos holda molekulyar va turbulent qovushoqlik koeffisienti; Re – xarakterli Reynol'ds soni, u oqim boshlang'ich parametrlari asosida aniqlanadi.

Turbulentlik xarakteristikalarini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan chegaraviy qatlama xossalari asosida yozilgan (1) asosidagi bir parametrali differensial tenglamadan foydalanimiz.

(1) tenglamada k_0, k_1, β - o'zgarmas empirik qiymatlari bo'lib, tajribada olingan qiymatlari bilan yechimlarni taqqoslash asosida aniqlanadi, yoki adabiyotlardagi qiymatlardan ham foydalanish mumkin.

(1) tenglamadagi L turbulentlik masshtabi uchun yuqorida aytiganidek, oqim kengayish kattaligini olish mumkin [1] va uni $L = c \cdot x$, ko'rinishida qabul qilish mumkin, [10] da aytishicha, oqim kengayish burchagi $\operatorname{tg}\alpha$ kabi aniqlanib, tekislikda ko'riliyotgan oqimlar uchun quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$\operatorname{tg}\alpha = 2,4a,$$

Bu yerda a – turbulentlikni hisobga olib oqim kengayishini xarakterlovchi kattalik.


Agar turbulentlik intensivligi kichik bo'lsa, uni $a = 0,066 \div 0,08$ kabi, agar kattaroq bo'lsa, uni $a = 0,09 \div 0,12$ kabi qabul qilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib agar $a = 0,09$ kabi qabul qilsak, $\operatorname{tg}\alpha = 2,4a$ dan $\operatorname{tg}\alpha = 0,216$ ni olamiz, u holda oqim kengayish burchagi $\alpha \approx 12^\circ$ ni tashkil etadi.

Oqim kengayish sohasini tavsiflovchi tenglama $y = k + \operatorname{tg}\alpha$ ega bo'lib, bu yerda $k = \operatorname{tg}\alpha$, b – oqim chiquvchi quvur radiusi, $\operatorname{tg}\alpha = 0,216$ holi uchun ushbu tenglama $y = 0,216x + b$ ko'rinishida bo'ladi.

[11] da aytishicha, ochiq oqim kengayishi boshlang'ich va asosiy sohalari uchun turlicha. Izotermik oqimlar uchun ular $\operatorname{tg}\alpha_i = 0,14$ и $\operatorname{tg}\alpha_m = 0,22$ kabi qiymatlarga ega. Bu aniqlanish haqiqatga to'g'ri keladi, chunki ko'pgina manbalarda aytishicha, bo'shlang'ich va asosiy sohalarda kengayish koeffisienti turlicha(1-chizma).

Ushbu mulohazalarni hisobga olgan holda biz boshlang'ich soha uchun kengayish sifatida $y = 0,14x + 1$ kabi tenglamadan, bu yerda o'lchovsiz holda bo'lgani uchun b qiyimat 1 ga teng, asosiy sohada esa kengayish sifatida $y = 0,22x + 1$ kabi qabul qilish mumkin, bu yerda r_i - boshlang'ich soha oxiridagi oqim kengayishi.



1-chizma. Ochiq oqim kengayishi

Shunday qilib, agar oqim kengayish kattaligini ushbu tenglamalardagi qiymatlar ko'rinishida olib bilnsa, ularni (1) tenglamada turbulentlik mashtabi sifatida qabul qilish mumkin.


Natijalar.

(2) Tenglamalar sistemasi uchun chegaraviy shartlarni (1)ni hisobga olgan holda quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\left. \begin{array}{l} x=0: \begin{cases} u=u_2, v_t=(v_t)_2, \vartheta=0 & \text{при } 0 \leq y \leq r_0 \\ u=u_1, v_t=(v_t)_1, \vartheta=0 & \text{при } r_0 < y \leq \infty \end{cases} \\ x>0: \begin{cases} \frac{du}{dy}=\vartheta=\frac{dv_t}{dy}=0, & \text{при } y=0 \\ u \rightarrow u_1, \vartheta \rightarrow 0, v_t \rightarrow (v_t)_1 & \text{при } y \rightarrow y_\infty \end{cases} \end{array} \right\} \quad (3)$$


Bu yerda «2» indeksi bilan oqim parametrlari, «1» indeksi bilan yo'ldosh oqim parametrlari belgilangan. (2) differensial tenglamalar sistemasi (1, 3) larni hisobga olgan holda ikki qatlamlı, oshkormas to'rt nuqtali chekli-ayirmalı sxema asosida progonka usulini qo'llagan holda yechildi [12,13].

2-chizmada bo'ylama tezlik (1 bilan belgilangan chiziq), bo'ylama turbulentlik qovushoqlik koeffisienti (2 bilan belgilangan chiziq), va hisoblangan oqim kengayish kattaligi (3 bilan belgilangan chiziq) ko'rinishlari keltirilgan bo'lib, bo'ylama tezlik va kengayish kattaligi [4] dagi natijalar bilan taqqoslangan. Ko'rinish turibdiki, turbulentlik mashtabini oqim kengayishi kabi olinganda natijalar sifati yaxshi.




2-chizma. Bo'ylama tezlikning o'qdagi qiymatlari (1), turbulent qovushoqlik koeffisientining o'qdagi qiymatlari (2), oqimning xarakterli kengayishi (3)

Asosiy o'qning $\bar{x} = 60$ qiymatidagi bo'ylama tezlik va turbulentlik qovushoqlik koeffisientining qiymatlari [7] da keltirilgan tajriba qiymatlari bilan solishtirgan holda 3-chizmada keltirilgan. Cizmada ko'rindiki, asosiy o'q yaqinida natijalar sifati o'qdan uzoqlashgan sari yaxshilanib boryapti, demak hali bu sohalarda izlanishlar olib borish kerak bo'ladi.




3-chizma. Asosiy o'qning $\bar{x} = 60$ qiymatida bo'ylama tezlik va turbulentlik koeffisientining hisoblangan qiymatlari.

4-chizmada turbulentlik modelidagi k_1 koeffisientning turli xil qiymatlarida hisoblangan asosiy o'qdagi bo'ylama tezlik qiymatlari keltirilgan. Ushbu ko'effisientning kichik qiymatlarida oqimlar orasidagi farq kamayib 2-chizmadagi natijaga yaqunlashayotganligi ko'rindi. Demak, bu koefisientning kichik qiymatlarida natijaning yaxshilanishi bu hadni ochiq oqimlarni hisoblashlarda hisobga olmaslik katta xatolikka olib kelmasligidan darak beradi.



4-chizma. Turbulentlik masshtabi qatnashgan haddagi koeffisient turli qiymatlarida oqim tezligi o'zgarishi 1- $k_2 = 0,5$, 2- $k_2 = 0,05$, 3- $k_2 = 0,005$.

5-chizmada oqim yo'nalishi bo'yicha $\bar{x} = 40$ va $\bar{x} = 60$ bo'lganda ko'ndalang tezlikning ko'ndalang kesimdag'i qiymatlari keltirilgan. Chizmadan ko'rindiki, tashqi sohaga yaqinlashgan sari oqim o'ziga yo'ldosh oqimni ham qo'shib ola boshlaydi. Bunda oqim tezligi susaygan sari yo'ldosh oqimni qamrab olish darajasi ham kamayib boradi.



5-chizma. Ko'ndalang tezlik tashkil etuvchisining $\bar{x} = 40$ и $\bar{x} = 60$ bo'lgandagi o'zgarishi

Xulosa. Ushbu ishda manbalardagi tajriba natijalariga asoslangan holda turbulentlik qovushoqligi uchun yozilgan bir parametrli differentsiyal tenglamadagi turbulentlik masshtabini aniqlashning usuli taklif etildi. Ushbu metodikaga asoslangan holda olingan natijalar tajriba qiymatlari bilan solishtirganda yaxshi natija ko'rsatmoqda. Faqat oqimning ayrim sohalarida hali izlanishlarni davom ettirish kerak. Umuman olganda ochiq oqim kengayishi boshlang'ich va asosiy sohalarda alohida chiziqlar asosida aniqlanishi ahamiyatli ekanligi, lekin bu to'g'ri chiziq ko'rinishi oqim oxirlarida buzilishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Абрамович Г.Н. Теория турбулентных струй. –М.: Наука, 1984. 718 с.
2. Белов И.А. Модели турбулентности: Учебное пособие. Л.: ЛМИ, 1986. 100с.
3. Victor W. Nee, and Leslie S. G. Kovasznay The Physics of Fluids 12, 473 (1969)
4. Секундов А. Н. Применение дифференциального уравнения для турбулентной вязкости к анализу плоских неавтомодельных течений. Изв. АН СССР. Сер. МЖТ. 1971. № 5. С. 114–127.
5. Ларина Е. В., Крюков И. А., Иванов И. Э. Моделирование осесимметричных струйных течений с использованием дифференциальных моделей турбулентной вязкости. Труды МАИ. 2015. Выпуск № 91. 24 с. URL: <http://www.mai.ru/science/trudy>
6. Дешко А.Е. Численное моделирование дозвукового горения струи пропана в спутном потоке воздуха. Прикладная гидромеханика. 2015. Том 17, N 2. С. 20 – 25.
7. Мадалиев М.Э. Численное исследование осесимметричных струйных течений на основе турбулентной модели vt-92 // Вестник ЮУрГУ. Серия: Вычислительная математика и информатика. 2020. Т. 9, № 4. С. 67–78. DOI: 10.14529/cmse200405
8. Jumayev J., Mustafakulov Ya., Kuldashev H. Numerical algorithm for modeling turbulence in a jet with diffusion combustion//2020 IEEE 14th international Conference on Application of information and Communication technologiyes(AICT). 7-9 okt. 2020. DOI 10.1109/AICT50176.2020.9368857
9. Jumayev J., Shirinov Z., Kuldashev H. Computer simulation of the convection process near a vertically located source//International conference on information Science and Communikations Technologiyes (ICISCT) 4-6 november. 2019. Tashkent. Conference Proceedings. pp.635-638. DOI: 10.1109/ICISCT47635.2019.9012046
10. Штеренлихт Д.В. Гидравлика: Учебник для вузов. М.: Энерго-атомиздат, 1984. -640с.
11. Талиев В.Н. Аэродинамика вентиляции. Учебное пособие для вузов. –М.: Стройиздат, 1979. -295 с. http://kitab.ttnda.az/upload-files/books/09/1145/aerodinamika_ventilyacii.pdf
12. Жумаев Ж., Тошева М.М. Моделирование стационарной теплопроводности при свободной конвекции в ограниченном объёме // Universum. Технические науки :электрон. научн. журн. 2022. 4(97). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13394m>
13. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и Mathcad. Электронное учебное пособие. Казан-2021. https://shelly.kpfu.ru/e-ksu/docs/F_852039566/UChEBNOE_POSOBIE_JUMAYEV_OPOKINA.pdf